Namangan davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada MTTlarning oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish zaruriyati hozirgi paytdagi dolzarbliq haqida.

**Kalit so'zlar:** oila; ota-ona; ota-onalar qo'mitasi; oila turlari; oila bilan hamkorlik; hamkorlik shakllari; oilaga tashrif; shaxsiy suhbat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N70>

**Kirish.** Ta'lim-tarbiya jarayoni har bir davrda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Insoniyat paydo bo'lgandan hozirgi davrgacha bola tarbiyasi jamiyatni o'ylantiradigan eng aktual masalaligicha qolmoqda. Tarbiya va uning samarali mexanizmlari haqidagi bilimlar qadimgi davr mutafakkirlaridan tortib zamonaviy olimlarga uzoq tadrijiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasiga oid o'zlarining qarashlari va g'oyalarini ilgari surganlar. Ular bola tarbiyasi jamiyat va davlat tomonidan amalga oshirilishi kerak, degan fikrni olg'a surganlar. Bu g'oya keyinchalik fransuz xayoliy sotsialistlari Sen Simon va Charl Fure asarlarida rivojlantirilgan. Ular ham bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerakligi haqidagi g'oyani quvvatlaganlar. Biroq, sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Ular oilaviy tarbiyaning rolini alohida ahamiyatga ega, deb hisoblaganlar. Masalan, Rizouddin ibn Fahridinning "Oila" nomli risolasida bola tarbiyasi yomon niyat va qo'pollik bilan emas, balki sabr-toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, shavqat va sezgirlik bilan bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Bolani nazoratsiz qoldirish katta xatolik ekanligini uqtirgan. Balki uni qattqlik va yumshoqlik o'rtasida adolat bilan tarbiyalash kerakligi haqidagi fikrlar berilgan.



Buyuk mutafakkirlarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Alisher Navoiy kabi allomalarning asarlarida ham bola tarbiyasiga doir qimmatli fikrlar mavjud. Ibn Sino bolalarni kamtarlik va donolikka o'rgatishda katta namuna bo'lgan. U manmanlik, maqtanchoqlik va o'zidagi bilimga ortiqcha baho berishni kishining axloqi pastligini ko'rsatuvchi belgilar deb ta'kidlagan. Uning fikricha, oilada bola yoshligidan boshlab faqat yaxshi odatlarga o'rgatilishi kerak, bu esa uning mustahkam xarakter shakllanishiga zamin yaratadi.

Ibn Sino yosh bolalarni yaxshi axloqli va jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashda ko'plab foydali usullarni ko'rsatib bergan. U tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo'lish usulining ahamiyatini qayta-qayta ta'kidlagan. Beruniy esa ota-onalar va tarbiyachilar obro'yining bolaga ta'sir kuchi haqida fikr yuritgan. Bu hozirgi talablarga ham javob beradi. Uning fikricha, ota-onalarning bolalarga tarbiyaviy ta'siri obro'ga asoslanadi. Biroq bu obro' tabiatan berilmaydi, sun'iy ravishda yaratilmaydi, qo'rquv, qo'rqitish, zo'rlik bilan erishilmaydi, balki ota-onaga nisbatan mehr oqibatidan kelib chiqadi. Alisher Navoiy ham xalqimiz rasm-rusumlari va milliy odatlarni juda nozik tushungan. Shuning uchun u inson xulq-atvori, madaniyatining hatto eng oddiy masalalariga ham e'tibor qaratgan. Navoiy tarbiyada xatolikka yo'l qo'yish mumkin emasligini uqtirgan. Haqiqatdan ham bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar faqat oila hayotida emas, balki jamiyat hayotida ham o'z aksini topadi.

Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli-tumandir. Ularning eng keng tarqalganlari quyidagilar:

- Ota-onalarning haddan tashqari hukmronlikka intilishlari;
- Bolaning erka bo'lishi, ularga nisbatan biror talabning yo'qligi;
- Ota-ona va buvilar tomonidan tarbiyada yagona talablarning yo'qligi;
- Oilaviy tarbiyadagi barqaror xatolar oilaning tuzilishi va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq;
- Kattalarning o'z fuqarolik burchlariga munosabati, ularning g'oyaviy yo'nalishi, mehnatga munosabati bilan bog'liq munosabatlar.

Bu belgilarga ko'ra oilaning bir necha turini ajratish mumkin. Tarbiyachilarga oila turlarini bilish va u bilan o'ziga xos holda ishlash va munosabatda bo'lish uchun zarurdir. Oilaviy tarbiyaning samaradorligi ko'p jihatdan ota-onalarning o'zlari, ularning axloqiy qiyofasi, odob-axloqi, ma'naviy madaniyati, tarbiyaviy madaniyatiga bog'liq bo'ladi.

**Muhokama.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT)ning ota-onalar bilan hamkorligi ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. MTTlar ota-onalar va mahalliy jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishlari mumkin:

- Bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish (seminar, ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferensiya, davra suhbatlari, pedagogik mehmonxonalar va boshqalar);
- Muntazam ravishda muloqotni ta'minlash (pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuvlar va yig'ilishlarni o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berishi va boshqalar);
- Ota-onalarni guruh va/yoki MTTga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish (rivojlantiruvchi muhitni yaratishda, xavfsiz muhitni ta'minlashda, o'yinlar tashkil etishda, qo'shimcha

xizmatlarni ko'rsatishda, ko'rgazmalarni bezashda, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etish);

- Ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida ko'maklashish (topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish);

- MTTga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish (kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati haqida ota-onalarni xabardor qilish, umumiy va guruhlarining ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, MTTning yangi dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish);

- Bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish (MTTlari faoliyatini takomillashtirishda mahalliy jamoatchilik resurslaridan foydalanish, hududdagi muzeylar, istirohat bog'lari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlariga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish).

MTTning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng jamoatchilik orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Ota-onalar bilan hamkorlikning eng keng tarqalgan shakllari quyidagilardir:

- Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Bu usul katta ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. Yakkama-yakka ishlarning turli shakllari mavjud, masalan, oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish.

- Ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari o'tkazish.

- Ko'rsatmali ishlar, ya'ni ko'rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona, oilaviy tarbiya masalalari bo'yicha materiallar to'plangan papkalarni yaratish.

- Ota-onalarga pedagogik ta'lim berish va boshqalar.

Bola yashab turgan oilani o'rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas, balki maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa, ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odat bilan o'tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlari ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi. Tarbiyachi bolaning uyida ko'rganlarini qayd qilib, tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi, ularga maslahatlar beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan testlarda aks ettirish ham mumkin. Oilaga kamida yiliga 2 marta borib ko'riladi. Tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi. Tarbiyachi oilaga borib ko'rgandagi taassurotlarini tarbiyaviy ishlarni hisobga olish ustuniga yozib qo'yishi kerak.

**Natijalar.** Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llaniladigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Bu usul tarbiyachilar bilan ota-onalarning bir-birlari bilan yaqinroq tanishuvlariga

yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'ladi, lekin uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissini paydo qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ota-onalardan bola kechqurun qanday kayfiyatda bo'lganini, qanday uxlaganini, o'zini qanday his etganini so'rash foydali bo'ladi. Tarbiyachi ota-onalarga bolalarni guruhda bugun nimalar kutayotganini qisqacha aytib beradi. Bu bolaning kayfiyatini ko'taradi, ota-onani xotirjam qiladi. Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan bo'ladi. Bunda tarbiyachi bolaning tashqi ko'rinishidagi kamchiliklarni aytishi mumkin. Shuningdek, bola kunni guruhda qanday o'tkazgani, nimalar bilan mashg'ul bo'lgani, o'zini qanday tutgani, nimaga e'tibor berish kerakligi haqida axborot beradi.

Ota-onalarni bola tarbiyasida yo'l qo'ygan biror kamchilik va xatoni tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o'tkazish zarur bo'lganda, vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat va tavsiyalar beriladi.

Guruhiy maslahatlar va majlislar. Agar tarbiyachiga aynan bir masala bir nechta ota-onani qiziqtirayotgani ma'lum bo'lsa, ular uchun umumiy maslahatlar tashkil etiladi. Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabiyotlarni va ko'rsatmali materiallarni tanlaydi, aniq vaqtni ota-onalariga bildiradi. Bunday maslahatlar vaqti-vaqti bilan va muntazam o'tkazilishi mumkin.

Ota-onalarning guruhiy majlislari zaruriyatiga qarab har chorakda bir marta o'tkaziladi. Bunday majlislardan maqsad ota-onalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur guruhdagi bolalarni tarbiyalash masalalari muhokama qilinadi, guruh ishi bilan bog'liq tashkiliy masalalar ko'rib chiqiladi, ota-onalarning bayramlarda ishtirok etishlari haqida gapiriladi.

Majlislar mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik ko'rishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarning yoshini hisobga olish zarur. Masalan, o'yin yoki mehnat faoliyatlari haqida masalalar ko'proq o'rin egallashi mumkin. Ota-onalarning umumiy majlisi maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT)ning barcha tarbiyalanuvchilari ota-onalari uchun yiliga ikki marta o'tkaziladi. Ularni MTT mudirasi, vrach, tarbiyachilar ishtirokida tashkil etiladi. Umumiy majlislarda ta'lim-tarbiya ishining yakunlari muhokama qilinadi.

Birinchi umumiy majlis o'quv yili boshida o'tkazilib, unda mudira ota-onalarni MTTning yillik ish rejasi bilan tanishtiradi. Rejaning oila bilan bog'liq qismiga alohida to'xtalib o'tiladi. Ikkinchi umumiy majlis o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Bunda MTTning o'tgan yildagi ish yakunlari haqida ma'lumot beriladi. Bolalar tashkilotida tarbiyalanuvchilarning yashash sharoitlarini yaxshilashda ota-onalarning qo'shgan hissalarini ta'kidlanadi.

Umumiy majlislarda MTT jamoasi qanday katta va murakkab ishni bajarishini va bu ishda ota-onalardan qanday yordam kerakligini ishonchli ravishda ko'rsatish lozim. Majlislarda pedagog ma'ruzasining hajmi 20-25 minutga mo'ljallangan bo'ladi.

Ota-onalar bilan MTT xodimlari birgalikdagi faoliyatining tashkil etilishi va uning mazmuni MTTdagi sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshirilganda, o'zaro yordam, bir-birini tushunish, ishga javobgarlik holati vujudga keladi.

Ota-onalar MTTni ko'kalamzorlashtirishda, xonalarni qish mavsumi MTTga tayyorlashda, sog'lomlashtirishda yordam ko'rsatishlari, bolalarga bayram kostyumlari tayyorlashda, bolalarni sayohatga kuzatib borishda ishtirok etishlari mumkin. Agar ota-onalar orasida

fotosuratchilar, tikuvchilar, rassomlar bo'lsa, ular MTTga bevosita yordam berishlari lozim. Ota-onalarning ishi ijtimoiy xarakterga ega va ixtiyoriylikka asoslangan bo'lishi kerak.

Birgalikdagi ishni to'g'ri tashkil etish uchun yillik reja tuziladi va ko'rinadigan joyga ilib qo'yiladi. Ota-onalardan qaysi kunlari MTTga kelib yordam berishlari mumkinligini so'rash lozim. Ochiq eshiklar kuni ota-onalar bilan ishlashning samarali shaklidir. Bu kun jamoaning yillik rejasi bo'yicha har bir yosh guruhning ma'lum rejimi bo'yicha oddiy mehnat kunidir. Bunday kunlarni yiliga 1-2 marta o'tkazish tavsiya qilinadi. Ochiq eshiklar kunini o'tkazish zarur, ya'ni ota-onalarga bolalarni jismoniy chiniqtirish, ovqatlantirish, mashg'ulotning borishi, sayr haqida ko'plab narsalarni ko'rish imkoniyati berilishi kerak.

Ota-onalardan esa bolalar bilan oddiy munosabatda bo'lish, ularning faoliyatida imkon boricha ishtirok etish, tarbiyachiga xalaqit bermaslik, farzandiga tanbeh bermaslik (mashg'ulotlar o'tkazilayotganda) talab etiladi.

Ochiq eshiklar kunini o'tkazishga tayyorlanganda fotosuratchini taklif etish, keyin esa "Ota-onalar bizning mehmonimiz", "Bizda ochiq eshiklar kuni" mavzusida foto ko'rgazma tashkil etish mumkin. Bu ochiq eshiklar kunida qatnasha olmagan ota-onalarda qiziqish uyg'otadi. Ochiq eshiklar kuni ota-onalarga MTTdagi ta'lim-tarbiya jarayoni, tarbiyachilarning ishlash uslublari, bolalarning kun tartibi, mashg'ulotlar, o'yin va mehnat faoliyatlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Bu MTT faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini ta'minlaydi, ota-onalarda ishonch va hurmat hissini kuchaytiradi.

**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan ota-onalar bilan ishlash.** Respublikamiz maktabgacha ta'lim tizimida eng dolzarb masalalardan biri bu maktabgacha ta'limga bola qamrovini rivojlangan davlatlar singari 100 foizga etkazish hisoblanadi. Hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini tubdan yaxshilash borasidagi olib borilgan islohotlar natijasida o'tgan bir yil mobaynida bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 27,7 foizdan 35,4 foizgacha etdi.

Rivojlangan davlatlarda 2 yoshli bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovi nisbatan pastligining asosiy sababi shundaki, ota-onalar bolalariga g'amxo'rlik qilish va tarbiyalash uchun tarbiyachi-enagalarni individual tarzda o'z uylariga yollaydilar. AQSH, Indoneziya va Rossiya davlatlarida 4-6 yoshli bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovining pastligi, aksariyat ota-onalar bolalari uchun uyda ta'lim beradigan o'qituvchilarni ishga yollaydilar. Shuningdek, ushbu davlatlarda 2-6 yoshli bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovining mamlakatimizga nisbatan yuqoriligining asosiy sababi turli xildagi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining samarali yo'lga qo'yilganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Shu sababli, O'zbekistonda maktabgacha ta'limga bola qamrovini oshirish uchun 2 muhim omilga e'tibor berish lozim:

1. MTTlari turini ko'paytirish va shuningdek, nodavlat MTTlari tarmog'ini kengaytirish.
2. Maktabgacha ta'lim xizmatlari sifatidan ota-onalarining qoniqish darajasini oshirish.

Erta bolalik davridagi ta'lim bolalarning bilim va ijtimoiy-emotsional rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi va ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish uchun o'ta muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, bolalarni maktabgacha ta'lim dasturlariga qabul qilish darajasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bundan tashqari, 2030 yilga qadar dunyodagi barcha bolalarni maktabgacha ta'lim va g'amxo'rlik bilan ta'minlash — barqaror rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biridir.

2017-yili bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizni, 2018 yilda 38 foizni, 2019 yilda 52 foizni tashkil etgan bo'lsa, maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasida boshlagan islohotlarimiz natijasida 2020-yili ushbu ko'rsatkich 60,9 foizga yetkazildi.

Maktabgacha ta'lim agentligi xabariga ko'ra, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 2017 yilga nisbatan (27,7 foiz) 2,5 barobarga, ya'ni 71,8 foizga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5 211 tadan 29 420 taga yetkazilgan.

2023-yil oxiriga qadar 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish darajasini 74,5 foizga etkazish rejalashtirilgan.

6 598 ta davlat (shundan, 49 ta idoralarga qarashli), 833 ta xususiy, 1 313 ta DXSH asosidagi nodavlat va 20 676 ta oilaviy nodavlat MTTlari faoliyati yo'lga qo'yilgan[3].

O'zbekistonda boquvchisini yo'qotgan ayollarning bog'cha xarajatlari byudjetdan qoplanadi. Otasidan ayrilgan, yolg'iz onasi qaramog'ida voyaga etgan muhtoj qizlarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida boshlang'ich to'lovini to'lab berish uchun har bir viloyatga 5 milliard so'mdan beriladi. Shuningdek, boquvchisini yo'qotgan ayollarning farzandini bog'chaga berish uchun xarajatlari qoplab beriladi.

Qaramog'ida bir va undan ortiq I va II guruh nogironligi bo'lgan bolalari mavjud 8 ming nafar yolg'iz ayollar mavjud. Namanganda – 1 ming nafar, Toshkent viloyatida – 970 nafar, Farg'onada – 830 nafar. Tuman va shaharlar kesimida Namangan shahrida – 180 nafar, Yangiyul tumanida – 176 nafar, Yangiyo'l tumanida – 165 nafar shunday ayollar istiqomat qiladi.

**Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar** – yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalardir.

Bu toifaga:

- nogiron bolalar;
- yetim bolalar;
- ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;
- ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar;
- muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar;
- kam ta'minlangan oilalardagi bolalar;
- jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar;
- zo'ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar.

Ota-onalari qaramog'isiz qolgan bolalar kategoriyalariga:

- ota-onalari — vafot etgan;
- ota-onalik huquqidan mahrum etilgan;
- ota-onalik huquqlari cheklangan;
- noma'lum, daraksiz, yo'q hisoblangan;
- muomalaga layoqatsiz;
- ishga yaroqsiz (nosog'lom, ish qobiliyati cheklangan);
- jazoni ijro etish koloniyalarida jazo o'tayotgan;
- jinoyat sodir etishda ayblanib, hibsdan bo'lgan;
- bolalarni tarbiyalashdan bosh tortgan;

- bola vaqtincha joylashtirilgan davolash, ijtimoiy tashkilotlardan bolani olib ketishdan bosh tortgan ota-onalardir.

BMTning Bolalar fondi tomonidan nashr etilgan “O‘zbekistondagi bolalar vaziyatining tahlili” (YUNISEF 2020)da shunday ma’lumotlar keltirilgan Qutlov so‘zi Munir Mamedzade YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari: 2019 yilda butun dunyoda Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 30 yilligi nishonlandi. Konvensiya inson huquqlari bo‘yicha eng keng ko‘lamda ratifikatsiya qilingan xalqaro bitim bo‘lib, u jahon miqyosida bolalarga nisbatan qarashlarni va munosabatlarni sezilarli darajada o‘zgartirdi. [4]

Konvensiyaga muvofiq, bolalar nafaqat passiv g‘amxo‘rlik obyekti sifatida, balki maxsus huquqlar to‘plamiga ega shaxslar sifatida qaraladi. 1994 yildan beri, Konvensiyada ishtirok etuvchi davlat sifatida, O‘zbekiston barcha bolalar huquqlarini, shu jumladan omon qolish, ta’lim olish, qadr-qimmatga ega bo‘lish, shuningdek, zo‘ravonlik va kamsitilishning har qanday shakllaridan himoya qilinish bo‘yicha huquqlarini ta’minlashni o‘z zimmasiga oldi.

O‘zbekiston hukumati keng qamrovli ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni boshlab yubordi va bolalar huquqlarini ilgari surish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Bunday sa’y-harakatlarning barchasi mamlakatdagi bolalar va ayollarning vaziyatini har tomonlama ko‘rib chiqishga va tahlilga asoslangan bo‘lishi zarurligini e’tirof etish tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni, shuningdek, O‘zbekistonda bolalar huquqlarini yanada ilgari surish yo‘lida yangi paydo bo‘layotgan muammolarni aniqlash uchun, O‘zbekistondagi bolalarning vaziyatini kompleks tahlil qilish ishlari amalga oshirildi.

Ishonamanki, ushbu hujjat 2030 yilgacha bo‘lgan Milliy strategiyani ishlab chiqishga ham hissa qo‘shadi va ko‘mak beradi. Bu esa, 2030 yilgacha mo‘ljallangan kun tartibining “Hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyiliga asoslanishi hamda inson kapitalini rivojlantirish va bolalar farovonligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratgan va sarmoyalar kiritgan holda, O‘zbekistonni Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish sari etaklashi kerak.

Shuningdek, hisobot O‘zbekistonda bolalarning omon qolish, rivojlanish, ta’lim olish, ijtimoiy himoya, bolalikni himoya qilish hamda jamiyat hayotida to‘laqonli qatnashishga oid huquqlarini amalga oshirishga intilishda “tugallanmagan kun tartibi” mavjudligini ko‘rsatmoqda.

**Bolalarni himoya qilish xavflari va tendensiyalarining sabablari.** Bevosita oilaviy omillar: Ota-onalarning bolalar ehtiyojlarini qondirish va bolalar xulq-atvoriga ta’sir o‘tkaza olish qobiliyati bolalar himoyasidagi zamonaviy tendensiyalarga ta’sir ko‘rsatuvchi bevosita omil hisoblanadi. Oilaning doimiy yoki to‘satdan zaiflashuvi, masalan, kambag‘alligi, ota yoki onaning vafoti, migratsiya yoki ota-onaning ajrashishi, uy-joyning yo‘qligi yoki yo‘qotilishi va oilaning sanab o‘tilgan muammolarni hal qila olmasligi bolalar “g‘ayriijtimoiy xulqqa” olib kelishi, bolalar savdosi yoki qarovsiz kabi holatlarga zaif qilib qo‘yishi mumkin.

**Xulosa.** Ota-onalarning bolalar bilan ijobiy muloqot qila olmasligi, bolalarning o‘ta ta’sirchanligi va og‘ir xulq-atvoriga qarshi qanday yo‘l tutish kerakligini hamda ularning o‘smirlik yoshida xulqidagi o‘zgarishlarni bilmasligi ham bolalarni shafqatsiz muomala va zo‘ravonlikka duch kelish xavfini oshiradi va oilaviy munosabatlarni uzil-kesil yo‘qqa chiqarishga olib kelishi mumkin bo‘lgan oilaviy nizolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar suiiste‘moli ham bolalarga bevosita zarar etkazish xavfining ortishiga sabab bo‘ladi. Maishiy va gender zo‘ravonlik masalasini keng muhokama

qilish jamiyatda qabul qilinmagan bo'lsa-da, bu kabi voqealar O'zbekistonda ham kuzatiladi. Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, o'z joniga qasd qilishni oldini olish markazlari da 2019 yilning birinchi yarmida 8 822 ayol yordam so'rab murojaat qilganligi qayd etilgan.

Bu murojaatlarning ko'pchiligi Namangan viloyatida (24%) ro'yxatga olingan, keyingi ko'rsatkichlar Surxondaryo (19%) va Qashqadaryo (11%) - 83 O'zbekistonda bola huquqlari va farovonligi, Andijon, Toshkent va Farg'ona viloyatlari (8% dan), shuningdek Xorazm, Samarqand viloyatlari va Toshkent shahri (4% dan) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Navoiy viloyatlarida (2% dan) qayd etilgan .

O'zbekistonda ko'pchilikning fikricha, oila va jamoatning an'anaviy qadriyatlarini hamda ularning o'zaro qo'llab-quvvatlanishi jamiyat yaxlitligining asosiy omillari va poydevori hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, bir qator manbalardan olingan ma'lumotlar joriy vaziyat bu kabi jamoaviy va shaxsiy munosabatlar asta-sekin yemirilishiga sabab bo'layotgani haqida dalolat bermoqda. Masalan, ajrashish ko'rsatkichlari o'smoqda. 2018 yil da mamlakatda 32 326 ajrashish holatlari qayd etilgan. Ayrim hududlarda bu tendensiya sezilarli darajada bo'lgani ham sir emas. 2018 yilda ajrashishlarning eng katta soni Toshkent shahrida, Andijon, Samarqand va Toshkent viloyatlarida ro'yxatga olingan. Shu bilan birga, ajrashishlar sonining o'sishi Andijon, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida kuzatilgan. Ajrashishlar soni ortgan sari, ota-onalar ajrashishi ta'sir qilgan bolalar soni ham oshib bormoqda.

Oilaviy munosabatlardagi o'zgarishlarni tavsiflashdagi yana bir ko'rsatkich, bu ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar va maishiy zo'ravonlik qurboniga aylangan ayollarga ko'rsatilayotgan xizmatlarga ortgan ehtiyoj. Boshqa mamlakatlarda bo'lganidek, mahalliy jamoatlar miqyosidagi qo'llab-quvvatlashning an'anaviy tizimi va an'anaviy oilaviy munosabatlarning buzilishi bolalar uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Yaqinda qabul qilingan choralarning ayrimlari ayollar va jamoat instituti hisoblangan oilani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Biroq, shunga qaramasdan, yuqorida ko'rsatilgan tendensiyalar rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun oilani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks yondashuvga asoslangan choralar qabul qilinishi lozim.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. J. Epstein, et. al., School, Family, and Community Partnerships: Your Handbook for Action, on the internet as a PDF at [www.gpo.gov/fdsys/pkg/ERIC-ED467082/pdf/ERIC-ED467082.pdf](http://www.gpo.gov/fdsys/pkg/ERIC-ED467082/pdf/ERIC-ED467082.pdf)
2. "Илк қадам" давлат ўқув дастури /такомиллаштирилагн II-нашри. –Т.:, 2022 й.
3. <https://kun.uz/news/2023/07/08/bolalarning-maktabgacha-talim-bilan-qamrov-darajasi-malum-boldi>
4. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., Kayumova N., A'zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.: "Tafakkur". 2019 y. (116-132-betlar).
5. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: "Ma'naviyat", 2013 y. – 160 b.
6. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv-metodik qo'llanma. –T.: "Fan va texnologiya", 2008 y. -160 b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).